

# **Yuz Jaǵ Jarrohligida Antibakterial Terapiyada Antibiotiklarga Nisbatan Sezgirlikni Aniqlash Yo'li Bilan Kompleks Davolashni Takomillashtirish**

*Haydarova Nargiza Muxiddinovna<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Antibakterial terapiya yuz-jaǵ jarrohligi sohasida ko'plab kasalliklarni , jumladan, yuz-jaǵ absess va flegmonalarini davolashning eng keng tarqalgan va samarali usuli hisoblanadi.Bu maqolada Antibiotiklarga nisbatan sezgirlikni aniqlash uchun preparatlarni tahlil qilish ,yuz-jaǵ jarrohligida bemorlarni kompleks davolashni takomillashtirish xirurg-stomatolog amaliyotidagi samarali usul ekanligi muhokama qilinadi.Tadqiqotlar 55 ta bemorlarda,18 dan 45 yosh chegarasida o'tkazildi, bulardan 39 nafari erkak (70.9%), 16 nafari ayol (29.1%) bemorlar Buxoro Tibbiyot Instituti klinikasi "Yuz-jag" jarrohligi va rekonstruktiv plastika" bo'limida antibiotiklarga nisbatan sezgirlikni aniqlash uchun 2024 yil fevral-may oylarida tadqiqot o'tkazildi.

**Kalit so'zlar:** antibakterial terapiya, antibiotik, sezgirlik, kompleks davolash,disk diffuz usuli.

**Kirish:** Hozirgi kunda yuz-jaǵ jarrohi har bir bemorni davolashda "antibiotiklarni bemorlarga tavsiya qilish " holati bilan to'qnash keladi. Antibakterial terapiya yuz-jaǵ jarrohligi sohasida ko'plab kasalliklarni davolashning eng keng tarqalgan va samarali usuli hisoblanadi. Bu, usulning yuqori samaradorligi va nisbatan zararsizligi bilan bog'liq. Antibiotiklarga nisbatan sezgirlikni aniqlash uchun preparatlarni tahlil qilish ,yuz-jaǵ jarrohligida bemorlarni kompleks davolashni takomillashtiradi . Antibiotiklarga sezuvchanlik testi nafaqat yuz-jaǵ jarrohligida, balki boshqa ko'plab kasalliklarni davolashda ham qo'llaniladi. Patogen mikroorganizmlarning antibiotiklarga sezgirligini aniqlash orqali antibakterial terapiya qo'llaniladigan har qanday kasallikni davolashni boshlash yaxshiroqdir.

Zamonaviy farmatsevtika tibbiyot mutaxassislariga antibakterial dorilarning keng tanlovini taqdim etdi. Ko'pincha bir xil patogenni davolash uchun 3 dan ortiq turli xil dorilar mavjud. Biroq, kerakli dori-darmonlarni darhol tanlash har doim ham mumkin emas. Bu bemorlarda yondosh kasalliklar mavjudligi va preparatlarni individual qabul qila olmasligi bilan bog'liq. Har qanday laboratoriya tekshirushi singari, antibiotiklarga sezuvchanlik testi mutlaqo xavfsizdir va noqulaylik yoki og'riq keltirmaydi. Bemordan biomaterial namunasi olinadi, so'ngra laboratoriyada tadqiqotlar o'tkaziladi.

**Tadqiqotning maqsadi:** Antibiotiklarga nisbatan sezgirlikni aniqlash uchun tahlil qilish , har bir alohida holatda eng samarali preparat tanlash usuli bilan bemorlarni tezroq hamda xavfsiz tuzatish natijasiga erishish .

**Material va usullar:** Tadqiqotlar 55 ta bemorlarda,18 dan 45 yosh chegarasida o'tkazildi, bulardan 39 nafari erkak (70.9%), 16 nafari ayol (29.1%) bemorlar Buxoro Tibbiyot Instituti klinikasi "Yuz-jag" jarrohligi va rekonstruktiv plastika" bo'limida antibiotiklarga nisbatan sezgirlikni aniqlash uchun 2024 yil fevral-may oylarida "disk diffuziya" usulini qo'llash yo'li bilan olib borildi.

**Tadqiqot natijalari:** Tadqiqotlar 55 ta bemorlarda,18 dan 45 yosh chegarasida o'tkazildi, bulardan 39 nafari erkak (70.9%), 16 nafari ayol (29.1%) bemorlar Buxoro Tibbiyot Instituti klinikasi "Yuz-jag" jarrohligi va rekonstruktiv plastika" bo'limida antibiotiklarga nisbatan sezgirlikni aniqlash uchun 2024 yil fevral-may oylarida tadqiqot o'tkazildi va shartli ravishda 2 guruhga bo'lindi.1 guruh asosiy bo'lib, 35 nafar bemor (25 erkak,10 ayol)dan, 2 nazorat guruh esa 20 nafar bemor (12 erkak,8 ayol) dan iborat.

<sup>1</sup> Assistent, Buxoro davlat tibbiyot Universiteti, O'zbekiston respublikasi, Buxoro shahar



Asosiy guruh bemorlarda antibiotiklarga sezuvchanlikni aniqlashda disk diffuziya usulini qo'lladik.Ushbu usul bilan sezgirlikni aniqlashda Petri idishidagi agar yuzasiga ma'lum zichlikdagi bakterial suspenziya (odatda MakFarlend loyqalik standartiga teng 0,5) qo'llaniladi va keyin ma'lum miqdordagi antibiotikni o'z ichiga olgan disklar joylashtiriladi. . Antibiotikning agarga tarqalishi disklar atrofida mikroorganizmlarning o'sishini bostirish zonasining shakllanishiga olib keladi. Idishlarni termostatda 35 o -37 o C haroratda tun davomida inkubatsiya qilgandan so'ng, natija millimetrdagi disk atrofidagi zonaning diametrini o'lchash yo'li bilan hisobga olinadi. Disk usuli sifatlari bo'lib, mikrobning preparatga sezgir yoki chidamliliginibaholashga imkon berdi.Natijada bemorlarning tuzalish koefisienti oshib,koyka kunlari qisqardi.

**Xulosha:** bakteriyalarning antibiotiklarga sezgirligini aniqlash usuli bilan yuz jaǵ jarrohligida antibakterial terapiya o'tkazish bemorlarda quyidagi samarali natijalarni aniqlaydi; eng samarali dori vositasini aniqlash, patogen mikroorganizmlarning terapiyaga "qo'shilishni" yo'q qilish;, preparatni samarasizligi yoki allergik reaksiyalar tufayli almashtirish; davolash muddatini qisqartirish yo'li bilan bemor ijtimoiy holatini yaxshilash.

### ADABIYOTLAR:

1. Haydarova N.M. ENHANCING THE ENCOMPASSING REHABILITATION OF INDIVIDUALS INFLUENCED BY LOWER JAW DISORDERS Journal of Healthcare and Life-Science Research Vol. 2, No. 11, 2023 ISSN:2181-4368, 70-73
2. Haydarova N.M. Improving the Entire Rehabilitation of People Impacted with Mandible Problems Miasto Przyszłości Kielce 2023 Impact Factor: 9.2 ISSN-L: 2544-980X, 354-357
3. Haydarova N.M. Increasing Rehabilitation Measures for Patients Who Have Maxillofacial Thermal Wounds, Miasto Przyszłości Kielce 2023 Impact Factor: 9.9 ISSN-L: 2544-980X,30-32
4. Haydarova N.M. RAISING REHABILITATION METHODS FOR PATIENTS WITH MAXILLOFACIAL THERMAL INJURIES, EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE Vol. 4 No. 2 (Feb - 2024) ISSN: 2795-921X, 422-424
5. Haydarova N.M. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ РЕАБИЛИТАЦИОННЫХ МЕР У ПАЦИЕНТОВ С ТЕРМИЧЕСКИМИ ОЖОГАМИ ЧЕЛЮСТОЛИЦЕВОЙ ОБЛАСТИ, AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI ,ISSN: 2181-3469 Jild: 03 Nashr:02 2024 yil, 322-325
6. SA Kambarova EFFECT OF SURGICAL MANIPULATION TO MORPHOMETRIC DEVELOPMENT OF FACE AND JAW IN PATIENTS WITH CONGENITAL LIP AND PALATE SPLITS // Новый день в медицине, 2021- P. 128 - 130. 2.
7. SA Kambarova Effect of Surgical Manipulation in Morphometric Growth of Maxillofacial Area at Children with Congenital Lip and Palate Splits At I and II Period of Childhood// Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 1853-1858. – 2021. - Vol. 25. - Issue 4. – P. 1853 – 1858.
8. KS Alixuseynovna Identification of the morphometric parameters of the crano-fascial region of children with congenital cleft and palate reflections using a developed research map // Central Asian Journal of Medical and Natural Science 2 (3), 286-290 Vol. 2. - Issue 3. – P. 286 – 290. 4.
9. IIIA Камбарова, ШК Пулатова REVITALIZATION OF NONSPECIFIC IMMUNITY FACTORS IN PATIENTS WITH DIFFUSE PHLEGMON OF THE MAXILLOFACIAL AREA USING A BAKTERIOPHAGE // Новый день в медицине, 128-130 // New day in medicine. - 2020. - P. 128 - 130. 5.
10. KSA Xuseynovna Optimization of the Diagnosis and Treatment of Oral Epulis Based on Morphological and Cytological Analysis // Texas Journal of Medical Science 6, 24-26 6.
11. KS Alikhuseynovna Statistical Processing Of Morphometric Measurements Of Craniofacial Area Of Children With Congenital Cleft Labia And Palate I And II Of The Childhood Period // Zien Journal of Social Sciences and Humanities 5, 31-35 7.



12. SA Kambarova, GS Yadgarova CHARACTERISTIC OF MORPHOMETRIC PARAMETERS OF CRANIOFASCIAL REGION OF CHILDREN WITH CONGENITAL CLEFT LIP AND PALATE // Academic research in educational sciences 2 (9), 295-303 8.
13. KS Alixuseynovna EFFECT OF SURGICAL MANIPULATION TO MORPHOMETRIC DEVELOPMENT OF FACE AND JAW IN PATIENTS WITH CONGENITAL LIP AND PALATE SPLITS // Web of Scientist: International Scientific Research Journal 2 (09), 29-35

